Yuldashev Elmurod Abdujalil o'g'li	
Совершенствование системы профессионального управления жилищно-коммунальным хозяйством Узбекистана .....	1116
Икромова Ханифа Одиловна	
Sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining zamonaviy holati.....	1121
Kamalova Jamila	
O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarning huquqiy maqomi va ularni isloq qilishning istiqbollari....	1125
Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li	
Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi .....	1131
Ne'matov Oybek Ismatullayevich	
Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития .....	1136
Туйчиев Комилжон Лазизович	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati .....	1143
O'ktamova Nozima Narzulla qizi	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish .....	1146
Umarov Abdulquddus Abdilqatovich	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах .....	1151
Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
Усманова Дилфузахон Иброхимовна	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities ....	1163
Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida) .....	1168
Kolmatov Sanjarbek Xojimamatovich	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishing asosiy ko'rsatkichlari.....	1174
Qilichev Umid Ibadullayevich	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choraları .....	1181
Xamraulova Gulnozaxon Faxriddin qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari .....	1185
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati .....	1191
Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Islom iqtisodiyotining mohiyati.....	1197
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Budget mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi .....	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari .....	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами .....	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar .....	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'llim sifatini ta'minlash oliv ta'llim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili.....	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish.....	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishing manbalari va yo'llari.....	1232
Raxmanov Ilhom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане .....	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике .....	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries .....	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari .....	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production .....	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari.....	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari.....	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiropi va ahamiyati.....	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari .....	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi.....	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida).....	1286
Mamatqulov Omonulla Mamayusupov	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами.....	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash .....	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	



# O'ZBEKISTON MOLIYA TIZIMIDA MAHALLIY MOLIYANING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Turopova Nigora Xolmurod qizi

TerDU tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** O'zbekiston moliya tizimida mahalliy moliya o'z ahamiyatiga ega. Mahalliy moliyaning daromadlarni shakllantrish va xarajatlarini moliyalashtirish respublika moliya tizimidan o'ziga xos tarzda amalga oshiriladi. Mahalliy moliyaning rolini oshirish borasida respublikamizda bir qator aniq islohotlar amalga oshirilganiga qaramasdan bu borada hali yetarlicha muammolar mavjuddir. Ushbu maqolada ana shu jihatlarning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Moliya, budjet, davlat budjeti, mahalliy budjet, respublika budjeti, mahalliy budjet, daromadlar manbayi, xarajatlar yo'nalishi, soliqlar, biriktirilgan soliqlar, tartibga soluvchi daromadlar, budjetlararo munosabatlari, mahalliy soliqlar, optimallashtirish, daromadlarni taqsimlash.

**Abstract:** Local finance is important in the financial system of Uzbekistan. The generation of revenues and financing of local finance expenses is carried out in a unique way from the financial system of the republic. Despite the fact that a number of specific reforms have been implemented in our republic in terms of increasing the role of local finance, there are still enough problems in this regard. This article talks about the features of these aspects.

**Key words:** Finance, budget, state budget, local budget, republican budget, local budget, source of income, direction of expenses, taxes, attached taxes, standard income, interbudgetary relations, local taxes, optimization, income distribution.

**Аннотация:** Местные финансы имеют важное значение в финансовой системе Узбекистана. Формирование доходов и финансирование расходов местных финансов осуществляется уникальным образом из финансовой системы республики. Несмотря на то, что в нашей республике реализован ряд конкретных реформ в части повышения роли местных финансов, проблем в этом плане еще достаточно. В данной статье рассказывается об особенностях этих аспектов.

**Ключевые слова:** Финансы, бюджет, государственный бюджет, местный бюджет, республиканский бюджет, местный бюджет, источник доходов, направление расходов, налоги, прикрепленные налоги, нормативные доходы, межбюджетные отношения, местные налоги, оптимизация, распределение доходов.

## KIRISH (INTRODUCTION)

Dunyoda moliya tizimining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan mahalliy moliya(budgetlar)ni<sup>1</sup> shakllantrish, ularning mablag'lаридан samarali foydalanishni ta'minlash masalalariga doimiy ravishda juda katta e'tibor berib kelinmoqda. Zero, hayotga tatbiq etilayotgan davlat siyosatining muvaffaqiyati va, aksincha, uning muvaffaqiyatsizligi hamda shularga mos ravishda hukumatning taqqidiri, ko'p jihatdan, ana shunga bevosita bog'liq.

Jahon amaliyotining ko'rsatishicha, keyingi yillarda aksariyat davlatlarda mahalliy moliya tizimining rolining oshishi kuzatilmoqda, ularning bu roli mahalliy budgetlar mablag'lаридан samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida, natijaviylikka yo'naltirilgan budgetlashtirish va budgetlashtirishning dasturiy-maqsadli metodidan foydalanishga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Bu yo'nalishlarda muammolarni hal etish borasida, ayniqsa, jahonning taraqqiy etgan mamlakatlarida ma'lum bir yutuqlarga erishilgan bo'lishiga qaramasdan, biroq ularning orasida o'z yechimini kutayotgan muammolar ham mavjud.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW)

Budjet, shu jumladan, mahalliy budjet mablag'lаридан samarali foydalanishni ta'minlash masalalari iqtisodiy (shu jumladan, moliyaviy) adabiyotlarda ma'lum darajada o'rganilgan va o'rganilmoxda. Ushbu masala bo'yicha xorijlik olimlardan O. V. Vrublevskaya, M. V. Romanovskiy, I. A. Pashkevich, N. L. Margolina,

<sup>1</sup> "Mahalliy budjet" tushunchasi xalqaro amaliyotda "munitsipalitetlar budjeti", "kantonlar budjeti", "provinsiyalar budjeti", "prefekturalar budjeti", "shtatlar budjeti", "yerlar budjeti" va boshqa ko'rinishlarga ega



V. M. Rodionova, T. V. Guyda, P. N. Nikolskiy, N. V. Sokolinskaya, S. Shaxray A. Blankenagel, N. Beluxa, D. Baxran, Sh. Soyan, A. Penchuk, T. Pereverzeva, S. Platonova, S. Shardan, M. Abduyev, V. Bursev, M. Vasileva, A. Krikunov, I. Ximichev, S. Shoxin kabilarni kiritish mumkin<sup>2</sup>. Mamlakatimiz iqtisodchi-olimlaridan H. R. Sobirov, Q. A. Yax'yoyev, T. Malikov, O. Olimjonov, N. Jumayev, N. H. Haydarov, X. Xudoyqulov, A. Burxonov, O. Kamolov, S. Elmizayev J. A. Qo'chqorov, B. A. Musayev, B. T. Turapov, D. A. Rahmonov va boshqalar ham shu sohani rivojlantirish borasida ilmiy-tadqiqotlar olib borganlar<sup>3</sup>.

Moliya tizimining tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan mahalliy moliya doirasida mablag'larning samarali sarflash masalasini tadqiq etishga, yetarlicha e'tibor berilmayapti. Yangi O'zbekiston iqtisodiy taraqqiyoti sharoitida mahalliy moliyani tashkil etish va uni ijro etish bilan bog'liq jarayonlarda bir qator muammolar saqlanib qolinishi, ularning yechimlari bilan bog'liq ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish ehtiyojini tug'dirmoqda.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY)

Moliya kategoriyasi ham iqtisodiy, ham tarixiy kategoriya sifatida jamiyatning iqtisodiy munosabatlar tizimi asosiy lokomotiv funksiyani bajarib keladi. Moliya kategoriyasi va munosabatlar o'zagini pul fondlari va ular bilan bog'liq pulli munosabatlar tashkil qiladi. Moliya kategoriyasining tarixiyligi shundaki, u davlat faoliyati bilan bog'liq bo'lib, dastlabki davlatchilik shakllari paydo bo'lgandan to hozirgi kunga qadar uzoq davrdagi rivojanish evolyutsiyasiga ega bo'lib, rivojlanib kelmoqda. Moliyaviy munosabatlarning ilk shakllari insoniyat taraqqiyotining quidorlik jamiyatni bosqichida jamiyatning sinflarga bo'linishi va davlatning vujudga kelishi bilan bog'liq ravishda paydo bo'ldi. Muayyan hududda boshqaruvi organi sifatida davlatning vujudga kelishi uning hokimiyat apparatini moddiy jihatdan ta'minlash, jamoat tartibini saqlash, mamlakatni himoya qilish, urush harakatlarini olib borish, ijtimoiy obyektlar va yo'llar qurish kabi vazifalarni bajarishi uchun ma'lum darajada pul mablag'lari ham bo'lishini taqozo eta boshladi. Xuddi shu holat o'z navbatida jamiyatda moliya paydo bo'lishini iqtisodiy zaruriyatga aylantirdi. Demak, davlatchilik tizimining vujudga kelishi moliyaning paydo bo'lishi uchun asosiy sabab bo'lib xizmat qildi.


Moliyaning o'zagini aksariyat iqtisodchilar ta'kidlaganidek, iqtisodiy taqsimot munosabatlar tashkil etishi, u davlat faoliyatining muhim ajralmas funksiyalari sifatida ham amal qila boshladi. Davlat o'z ehtiyojlarini moliyaviy jihatdan qondirishning asosiy vositasi bu milliy daromadni qayta taqsimlash tashkil eta boshladi(dastlabki davrlarda bunday taqsimot ancha sodda shaklda amalga oshirilgan, hali pul paydo bo'lmagan sharoitda taq-

- 2 С. Шахрай Финансовый контроль в XXI веке/ Шахрай С. М. // Налоги. М. -2004.-№12, А. Бланкенагель Теория и практика конституционного контроля в ФРГ // Советское государство и право. – 1989. – № 1. – С. 102., Н. Т. Белуха. Контроль и ревизия в отраслях народного хозяйства: учебник. – М.: Финансы и статистика, 2002. 4., Д. Н. Бахран. Административное право России. – М., 2001. – С. 166., С. К. Шардан, Инструментарий государственного финансового контроля. Вестник Академии знаний №38 (3), 2020., Ш. Ч. Соян. Проблемы государственного финансового контроля. Journal of Economy and Business, vol.11-3 (57), 2019., Пенчук А. В. Государственный финансовый контроль в Российской Федерации и направления его совершенствования // Концепт. – 2014. – № 07 (июль). – ART 14177. – 0,4 п. л. – URL: http://e-koncept.ru/2014/14177.htm. – Гос. рег. Эл № ФС 77-49965. – ISSN 2304-120X., Перееверзева Татьяна Викторовна. Государственный финансовый контроль расходов бюджета на финансирование социальной сферы. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук Специальность 08.00.10 – Финансы, денежное обращение и кредит. Донецк 2018., Платонова Светлана Евгеньевна. Механизм совершенствования государственного финансового контроля Специальность 08.00.10 – Финансы, денежное обращение и кредит автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. 2013., Бурцев В. В. Организация системы государственного финансового контроля в РФ: теория и практика. – М.: Дашков и К, 2002., Васильева М. В. Государственный финансовый контроль в управлении регионом. – Волгоград, 2003. – 182 с., Крикунов А. В. Сущность, организация и перспективы государственного финансового контроля в РФ. – СПб.: Изд. СПб государственного университета экономики и финансов, 2001., Финансовое право: учеб. / под ред. Н. И. Химичевой. – М.: Юрист, 2004., Шохин С. О. Воронина Л. И. Бюджетно-финансовый контроль и аудит. Теория и практика применения в России. – М.: Финансы и статистика, 1997.
- 3 Malikov T. Olimjonov O. Moliya. Darslik. – T.: "Iqtisod-moliya", 2019. – 800 b. Malikov T. S., Haydarov N. H. Moliya: umum davlat moliyasi. O'quv qo'llanma. – T.: "Iqtisod-moliya", 2009. – 556 b. Malikov T. S., Haydarov N. H. Budjet daromadlari va xarajatlari. O'quv qo'llanma. – T.: "Iqtisod-moliya", 2007. – 245 b. Malikov T. S., Haydarov N. H. Budjet (tizimi, tuzilmasi, jarayoni). O'quv qo'llanma. – T.: "Iqtisod-moliya", 2008. – 84 b. Malikov T. S., Haydarov N. H. Davlat budjeti. O'quv qo'llanma. – T.: "Iqtisod-moliya", 2008. – 112 b. Po'latov D. H., Nurmuhamedova B. I. G'aznachilik. Darslik. – T.: "Sano-standart", 2014. – 272 b. Fuqarolar uchun budjet. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, VMTTD. – T. 2018. – 96 b. Nurmuhamedova B. I. Davlat budjeti. O'quv qo'llanma. – T.: "Iqtisod-moliya", 2018. 358-521-betlar. Nurmuhamedova B. I., Srojiddinova Z. X., Sugirbayev G. G. O'zbekiston Respublikasida ta'lim xarajatlarini rejalashtirish. O'quv qo'llanma. – T.: "InfoCapitalGrup", 2013. – 447 b. Nurmuhamedova B. I., Kabirova N. V. Moliya. O'quv qo'llanma. – T.: "Iqtisod-moliya", 2017. – 228 b. G'aybullayev O., O'rroqov U. O'z-bekiston Respublikasida budjet tizimi va jarayoni. O'quv qo'llanma. – T.: "Baqtriya-press", 2015. – 168 b. Юлдашева Н. В. Местные бюджеты: учебно-методическое пособие. – T.: "Iqtisod-moliya", 2015. – 362 s. Fayzullayev Yo. Sh., Azizov I. A. Budjetni o'rta muddatli rejalashtirish. – T.: "infoCOM", 2010. – 152 b. Rahmonov D. A. O'zbekistonda ijtimoiy sohani moliyalashtirishni takomillashtirishning metodologik asoslari. Monografiya. – T.: Fan va texnologiya, 2017. 248 b. Rahmonov D. A. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish tendensiyalari // Biznes-Ekspert. – Toshkent, 2016. – №8. – B. 38-41. Rahmonov D. A. Oliy ta'lim tizimini moliyalashtirishning samaradorligi – mamlakatlar innovatsion rivojlanishi omili sifatida // Iqtisodiyot va ta'lim. – Toshkent, 2017. – №1. – B. 141-145. Rahmonov D. A. Ijtimoiy sohani moliyalashtirishning iqtisodiy o'sishga ta'siri // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar (ilmiy elektron jurnal). – Toshkent, 2017. – №2. Rahmonov D. A. O'zbekistonda ijtimoiy sohani rivojlanirishning nazarii metodologik asoslari // Xalqaro moliya va hisob (ilmiy elektron jurnal). – Toshkent, 2017. – №5. – B. 1-9. va b.



simot munosabatlari ham ham shunga mos holda amalga oshirilib kelingan). Ushbu taqsimot munosabatlari esa davlat miyosida qandaydir pul fondlarini shakllantirishni taqozo eta boshladi. Ushbu pul fondlari milliy daromadning bir qismini qiymat shaklda ifoda etib, uni taqsimlash jarayoni ham alohida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari tizimi va faoliyatni tashkil etadi. Milliy daromadni qayta taqsimlash o'z-o'zidan amalga oshmaydi, uni taqsimlashning eng optimal usuli esa majburiy to'lovlar-soliqlarni joriy etishga olib keldi. Bu yerda shuni ko'rish mumkinki, davlat o'zining faoliyatni olib borish uchun zarur bo'ladigan moliyaviy mablag'larni ta'minlash(uni jamiyatdan undirish) bilan bir qatorda jamiyatning ikki sohasi: ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohasida o'zaro muvozanatni(proprotsiyani) ta'minlashning ijtimoiy zarurligi keng qamroqli moliyaviy munosabatlarni keltirib chiqaradi.

Davlat budgeti tizimi mamlakat davlat budgeti tuzilishining tarkibiy qismi bo'lib, uning ma'lum bir qismini o'zida ifoda etadi. Shu ma'noda, davlat budgeti tizimi davlat budgetining o'zaro bog'liqlikda bo'lgan bo'g'inlarining o'zaro yig'indisidan iboratdir. Mamlakatning davlat budgeti tizimi jamiyatning siyosiy tuzilishiga, davlatning iqtisodiy tizimiga va uning ma'muriy-hududiy bo'linishiga bevosita bog'liq.



1-rasm: Mahalliy budjetlar daromadlari manbalari<sup>4</sup>

4 Qonunchilik hujjatlariga asosan muallif tomonidan tuzilgan.



Har bir mamlakatning davlat budjeti tuzilmasi uning milliy-davlat yoki ma'muriy-hududiy tuzilishi bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasining davlat budjeti:

- Respublika budjetini;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetini va mahalliy budgetlarni o'z ichiga oladi.

O'z navbatida, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budgetini hamda shu respublikaga bo'y sunuvchi tumanlar va shaharlar budgetlarini o'z ichiga oladi. Viloyatlar budgeti esa viloyat budgetidan, viloyatga bo'y sunuvchi tumanlar va shaharlar budgetlaridan iboratdir. Shuningdek, tumanlarga bo'linadigan shaharlarning budgeti shahar budgetetini va shahar tarkibiga kiruvchi tumanlar budgetlarini o'z ichiga oladi. Va niyoyat, tumanga bo'y sunadigan shaharlari bo'lgan tumanning budgeti tuman budgetidan va tuman bo'y sunuvdag'i shaharlар budgetlaridan tarkib topadi.

O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 52-moddasiga ko'ra, "O'zbekiston Respublikasining respublika budgetidan ajratiladigan budgetlararo transfertlar Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budgetining, viloyatlar viloyat budgetlarining va Toshkent shahri shahar budgetining daromadlari hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining respublika budgetiga tushadigan ayrim soliqlar va boshqa daromadlar Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budgetiga, viloyatlarning viloyat budgetlariga, Toshkent shahrining shahar budgetiga qonunchilikda belgilangan miqdorlarda va tartibda taqsimlanishi mumkin. Soliqlar va boshqa daromadlar belgilangan normativlarga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budgeti, viloyatlarning viloyat budgetlari, Toshkent shahrining shahar budgeti hamda tumanlar va shaharlар budgetlari o'tasida qayta taqsimlanishi mumkin"<sup>5</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-iyundagi "Mahalliy budgetlarni shakllantirishda joylardagi davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5075-sonli Farmoni bilan respublikamizda mahalliy moliyani institutsional o'zgartirish va uni yanada takomillashtirish bo'yicha bir qator yangi mexanizmlar kiritildi. Unga ko'ra, "2017-yilning 1-iyulidan boshlab 2017-yilning 31-dekabrigacha Toshkent shahri va uning tumanlarida tajriba tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha belgilangan soliq tushumlari, jismoniy shaxslarning mulklaridan olinadigan soliqlar, jismoniy shaxslardan olinadigan yer soliqlari, tovarlarning ba'zi turlari bilan savdo qilish va xizmatlarning alohida turlarini ko'rsatish huquqi uchun yig'imlar to'liq hajmda tumanlar budgetlari daromadlari hisobiga o'tkazilishi, O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetiga to'lanadigan mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi va bozorlardan tushayotgan daromadlar Toshkent shahri budgeti va tumanlar budgetlari o'tasida taqsimlanishi, yuridik shaxslarning yer soliqlaridan tushadigan tushumlar, suv resurslaridan foydalanish solig'i, jismoniy shaxslardan olinadigan mulk solig'i to'liq hajmda Toshkent shahri budgetiga yo'naltirishi, yuridik shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq tushumlari, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun olinadigan soliqlar, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun yagona soliq to'lovi, jismoniy shaxslarning daromad soliqlari O'zbekiston Respublikasining respublika budgeti va Toshkent shahrining mahalliy budgeti o'tasida tegishli normativlarga ko'ra taqsimlanishi, O'zbekiston Respublikasining respublika budgeti va Toshkent shahri budgeti o'tasida, shahar budgeti qismida, o'tkazilgan soliqlardan belgilangan prognozlarni ortig'i bilan bajarish summasi, Toshkent shahrining mahalliy budgeti ixtiyorida qoldirish"<sup>6</sup> mexanizmlari joriy qilindi.

Bunday tartib va mexanzmlarning joriy qilishdan asosiy maqsad mahalliy moliyani tashkil qilish va uni amalga oshirishning yangi samarali uslublarini joriy qilish orqali mahalliy hokimliklarning mahalliy budgetlarning daromadlarini to'g'ri va qulay shakllantirishga oid takliflarini qo'lab-quvvatlashdan iborat bo'ldi.

Bundan tashqari, mahalliy moliyaning asosiy qismi bo'lgan mahalliy budgetlarning daromad bazalarini kuchaytirishda moliya-soliq organlari rahbarlari va mutaxassislarining moliyaviy ma'suliyatini oshirishni ta'minlash maqsadida keyinchalik qo'shimcha zaxiralarni topish va shu asosda mahalliy budgetning daromad bazasi kengaytirishini barbod qilgan yoki o'zini chetga olgan davlat soliq xizmati va moliya organlarining hududiy va tuman (shahar) bo'linmalari rahbarlari hamda mansabdar shaxslariga nisbatan egallab turgan lavozimidan ozod etishgacha bo'lgan qat'iy choralarini ko'rish tartibi joriy qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-dekabrdagi "Mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini oshirish, mahalliy budgetlarga tushumlarning to'liqligini ta'minlash bo'yicha soliq va moliya organlari javobgarligini kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5283-sonli Farmoni qabul qilindiki, undan asosiy maqsad sifatida "mahalliy budgetlarning daromad bazasini tubdan mustahkmalash va nomarkazlashtirish asosida hududlarni kompleks rivojlantirishni barqaror moliyalashtirish, budgetlararo munosabatlarni yanada takomillashtirish, mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'maklashish, yangi ish joylari yaratish hamda

5 O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 52-moddasi.

6 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-iyundagi "Mahalliy budgetlarni shakllantirishda joylardagi davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5075-sonli Farmoni.



aholi bandligini ta'minlash, muhandislik-kommunikatsiya, yo'l-transport va ijtimoiy infratuzilmani jadal rivojlan-tirish hisobiga soliq salohiyatini kengaytirish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda ularning mas'uliyatini oshirishni ta'minlash<sup>7</sup> yo'nalishlari belgilab olindi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/RECOMMENDATIONS)

Keyingi ikki-uch yilda respublikamizda moliya tizimi, jumladan, mahalliy moliya tizimining muhim o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor beradigan bo'lsak, bunda moliyalashtirishning ochiq budget shakli tamoyillari qo'llanilib, mahalliy budgetdan moliyalashtiriladigan ko'pgina, ijtimoiy xarajatlar va iqtisodiy xarajatlarda o'z samarasini berib kelmoqda. Respublikamizda fuqarolik jamiyatining ko'rinishlarini rivojlantirishning bir shakli sifatida fuqarolarning takliflari va manfaatlarini e'tiborga olgan holda mahalliy budget mablag'larini to'g'ri yo'naltirishga katta imkon yaratdi deb hisoblash mumkin.

Mamlakatimizda mahalliy budgetlar xarajatlarining samarali sarflanishini ta'minlash muammosini muvafqaqiyatli hal etishda bu yo'nalishdagi xalqaro tajribani o'rganish, tegishli xulosalarni chiqarish va ulardan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlarini aniqlash ham muhim ahamiyatga ega. Budget ahvolining qanday ekanligi bilan undan xarj qilinayotgan mablag'larning samarali sarflanishini ta'minlash o'rtasida to'g'ri proporsional bog'liqlik yo'q. Biroq shunday bo'lishiga qaramasdan, bizning fikrimizcha, budget va, shu jumladan, mahalliy budgetlar mablag'larining samarali sarflanishini ta'minlash nuqtayi-nazaridan budgetning profitsitsli ijro etilishiga nisbatan uning defitsitli ijro etilayotganligi ma'lum bir ustuvor (masalan, mablag'larning yetarli emasligi ularni sarflanishiga nisbatan munosabatni, jumladan, tejab-tergab, maqsadli, qonuniy va boshqalarini shakllantiradi) ahamiyat kasb etishi mumkin. Mahalliy budgetlar daromadlari va xarajatlarini shakllantirish, ularning maqsadli sarflanish holatlari ustidan moliyaviy nazorat tahlili bugungi kunda o'ziga xos muammolar mavjud bo'lib, ularning ilmiy-nazariy yechimlarini amalga oshirish zarurati tug'ilmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Budget Kodeksi. 452-modda. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujatlari to'plami. 52-son; 2014. –36-son.
2. O'zbekiston Respublikasning 2020-yil 25-dekabrdagi "2021-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat Budgeti to'g'risida"gi O'RQ – 657-sonli Qonuni. –www.lex.uz
3. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2021. –464b.
4. Malikov T. S. Moliya. Darslik. –Toshkent. 2019. 985 b.
5. Срожиддина 3. Х. Бюджетная система Республики Узбекистан. Учебник. –Ташкент, – 2010. –С.480
6. Сычёв Н. Г., К. И. Таксир. Финансово-экономические проблемы муниципальных образований. – М.: Финансы и статистика. 2020. – С.703

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-dekabrdagi "Mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini oshirish, mahalliy budgetlarga tushumlarning to'liqligini ta'minlash bo'yicha soliq va moliya organlari javobgarligini kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5283-sonli Farmoni

# Yashi

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2023. № 11-12**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

**Jurnalning ilmiyligi:**

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.

